

# **Surxondaryo viloyati hokimligida viloyat hokimi To'ra Bobolovning navbatdagi "Tadbirkorlar qabuli" bo'lib o'tdi.**



Unda viloyat hokimining o'rinosarlari, kotibiyat mudirlari, viloyat prokurori o'rinosari, Termiz shahar va barcha tumanlar birinchi o'rinosarlari, iqtisodiy korxonalar va aloqador tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

Qabulda shahar va tumanlaridan 22 nafar tadbirkor o'zini qiynayotgan masalalar bo'yicha viloyat rahbariga murojaat qildi.

Murojaatlarning asosiy qismi tijorat banklaridan kredit olish, o'z faoliyatini kengaytirishga ko'maklashish maqsadida bino va yer maydoni ajratish, kommunal sohadagi muammolar va boshqa sohalarga oid masalalar bilan bog'liq bo'ldi.

Qabulda qatnashgan tadbirkorlardan 9 nafarining murojaati joyida hal etilgan bo'lsa, yechimi ma'lum vaqt talab etiladigan 13 ta masala bo'yicha aloqador tashkilotlarga topshiriglar berildi.

[https://t.me/axborot\\_xizmati](https://t.me/axborot_xizmati)